
Favqulotda holatlarni oldini olish bo'yicha ochiq muloqot o'tkazildi

Viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Farg'ona shahar bo'limi xodimlari tomonidan "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida xamda 2022-2023 yillar kuz-qish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni oldini olish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida doimiy ravishda aholi o'rtasida profilaktik tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, bugun Farg'ona politexnika institutining majlislar zalida Farg'ona shahar sektor rahbarlari, Farg'ona viloyati harbiy prokuraturasi hamda viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi mas'ul xodimlari tomonidan ochiq muloqot o'tkazildi.

Unda Farg'ona shahridagi barcha mahalla fuqarolar yig'ini raislari, hokim yordamchilari, xotin-qizlar faollari, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari hamda shu hududda yashovchi aholi vakillari ishtirok etishdi. Yig'ilish ishtirokchilariga mas'ul xodimlar tomonidan Respublikamizda o'tkazilayotgan "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida yong'in xavfsizligini ta'minlash, gaz va havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni oldini olish, shuningdek, tabiiy gazdan va maishiy gaz ballonlaridan to'g'ri foydalanish, sifatsiz, uy sharoitida tayyorlangan tuzlama mahsulotlaridan zaharlanish kabi xolatlarni oldini olish bo'yicha tegishli ma'lumotlar hamda tavsiyalar berib o'tildi.

Tadbir davomida Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi mas'ul xodimi podpolkovnik Z.Kadirov viloyatimiz hududida is gazi va yong'inlar bilan bog'liq sodir bo'layotgan baxtsiz hodisalar viloyat rahbariyatini tashvishga solayotgani to'g'risida alohida to'xtalib, bu kabi ko'ngilsiz holatlarni oldini olishda mahalla faollarining yordami zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Yig'ilish so'ngida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov mahalla faollariga o'zlarining hududlarida hamkor tashkilotlar vakillari bilan targ'ibot tadbirlarini doimiy ravishda o'tkazib borish va bu orqali sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarni oldini olish mumkinligini ta'kidlab o'tdi. Sektor rahbarlari tomonidan mas'ullarga kun tartibidagi masalalar yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-01 21:36:33